



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 194 sahifa,  
6-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<a href="#">Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</a>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<a href="#">Omonova Nilufar Parda qizi</a>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<a href="#">Xujanova Shaxina Abdullayevna</a>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari .....	24
<a href="#">Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</a>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<a href="#">Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</a>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<a href="#">Ramozonova Bahroy Sadriddinovna</a>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<a href="#">Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi</a>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<a href="#">V. Sh. Raximov</a>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni .....	46
<a href="#">Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</a>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli .....	51
<a href="#">Vasila Yusupova</a>	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish .....	55
<a href="#">B. X. Sharopov</a>	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi .....	59
<a href="#">Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li</a>	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
<a href="#">J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi</a>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari .....	67
<a href="#">Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</a>	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
<a href="#">S. A. Qarshiboyev</a>	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<a href="#">Suyunov Rustam Sadriddinovich</a>	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari .....	78
<a href="#">Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi</a>	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
<a href="#">Umarov Azizbek Vaxobovich</a>	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
<a href="#">Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</a>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
<a href="#">S. S. Qulmurodova</a>	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
<a href="#">Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</a>	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
<b>Burkhonova Zараfruz Kobilovna</b>	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish .....	102
<b>Bozorboyev Javlon</b>	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
<b>Jamilova Dilsuza To'lqin qizi</b>	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li</b>	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi .....	114
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi</b>	
Fotometrik kattaliklar .....	117
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi</b>	
Qutublangan yorug'lik manbalari .....	121
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina</b>	
Tabiatdagi optik hodisalar .....	125
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi</b>	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish .....	129
<b>Erkinova Nozima Utkir qizi</b>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili .....	133
<b>Ikmatullayev G'. Z.</b>	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish .....	136
<b>Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida</b>	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
<b>Shokirova Mushtariy</b>	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli .....	144
<b>Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li</b>	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
<b>Veronica Khatamova</b>	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
<b>Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li</b>	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida .....	157
<b>Abdukarimov Muhammadjon Muratovich</b>	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot .....	162
<b>Islamova Fotima Shamsiddinovna</b>	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
<b>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</b>	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
<b>Saidova Parvina Mirzo kizi</b>	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari .....	178
<b>Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi</b>	



Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<a href="#">Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</a>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<a href="#">Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<a href="#">Umida Marasulova</a>	



## BOLALARNING MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA EMOTSIONAL RIVOJLANISHIGA OID NAZARIY QARASHLAR TAVSIFI

**Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi**

Andijon Davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

**Yuldasheva Umida Maxmudovna**

Andijon Davlat pedagogika instituti Falsafa fanlari doktori PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishini izohlovchi nazariy qarashlar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi emotsional rivojlanishning asosiy mexanizmlari, ijtimoiylashuv omillari va tarbiyaviy muhit bilan o'zaro ta'sirini turli ilmiy maktablar kesimida tavsiflab, integrativ nazariy ramka taklif etishdan iborat. Metodologiya sifatida konseptual tahlil, komparativ yondashuv va manbalarni tanqidiy ko'rib chiqish usullari qo'llanildi; psixologiya va pedagogika bo'yicha klassik hamda zamonaviy tadqiqotlar g'oyaviy yo'nalishlarga ajratilib, ularning tushuntiruvchi imkoniyatlari solishtirildi. Ilmiy yangilik emotsional rivojlanishni affektiv jarayonlar, o'zini boshqarish va ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar birligi sifatida talqin qiluvchi, maktabgacha ta'lim amaliyoti uchun operatsionallashtiriladigan nazariy modelni asoslash bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, emotsional rivojlanish, affektiv jarayonlar, emotsiyani boshqarish, ijtimoiylashuv, bog'lanish, tarbiyaviy muhit.

**Abstract:** This article provides a systematic analysis of theoretical perspectives on emotional development in preschool-age children. The study aims to describe the core mechanisms of emotional development, factors of socialization, and their interaction with the educational environment across major scholarly traditions, while proposing an integrative theoretical framework. Methodologically, the paper employs conceptual analysis, a comparative approach, and critical source review; classical and contemporary studies in psychology and pedagogy are categorized according to theoretical traditions and compared in terms of explanatory potential. The scientific novelty lies in substantiating a model that conceptualizes emotional development as an integrated unity of affective processes, self-regulation, and socio-communicative competencies, designed to be operationalized for preschool education research and practice.

**Key words:** preschool age, emotional development, affective processes, emotion regulation, socialization, attachment, educational environment.

**Аннотация:** В статье представлен системный анализ теоретических взглядов на эмоциональное развитие детей дошкольного возраста. Цель исследования заключается в описании ключевых механизмов эмоционального развития, факторов социализации и их взаимодействия с воспитательной средой в рамках различных научных школ, а также в предложении интегративной теоретической рамки. В качестве методологии использованы концептуальный анализ, сравнительный подход и критический обзор источников; классические и современные исследования по психологии и педагогике были сгруппированы по направлениям и сопоставлены по объяснительной мощности. Научная новизна определяется обоснованием модели, интерпретирующей эмоциональное развитие как единство аффективных процессов, саморегуляции и социально-коммуникативных компетенций, с возможностью операционализации для практики дошкольного образования.

**Ключевые слова:** дошкольный возраст, эмоциональное развитие, аффективные процессы, регуляция эмоций, социализация, привязанность, воспитательная среда.

### KIRISH

Maktabgacha yosh davri emotsional rivojlanishning eng sezgir bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda bola emotsiyalarni farqlash, ularni ijtimoiy vaziyatlarga mos ifodalash, hamdardlik va hamkorlik kabi pro-sotsial sifatlarni shakllantirishni boshlaydi. Emotsional rivojlanish faqat ichki kechinmalar dinamikasi emas, balki bola xulq-atvorining motivatsion asoslari, ijtimoiy aloqalar sifati va keyingi ta'lim trayektoriyasiga ta'sir etuvchi o'zini boshqarish resurslari bilan uzviy bog'liq murakkab tizimdir. Shu sababli maktabgacha ta'lim amaliyotida



emotsional farovonlik, xavfsiz psixologik muhit va tarbiyachining emotsional kompetentligi masalalari alohida dolzarblik kasb etadi.

Nazariy adabiyotlarda emotsional rivojlanish turlicha izohlanadi: bir tomonda biologik yetilish va temperamentga tayanadigan yondashuvlar, boshqa tomonda ijtimoiy-madaniy tajriba, til va muloqot orqali emotsiyalar shakllanishini urg'ulovchi kontsepsiyalar mavjud. Bu xilma-xillik amaliy qarorlar qabul qilishda ham metodik parchalanuvchanlikni keltirib chiqaradi: qaysi holatlarda emotsional muammo individual xususiyat, qaysi holatlarda muhit mahsuli, qaysi holatlarda esa munosabatlar tizimidagi nomutanosiblik ekanini aniqlash murakkablashadi. Shuningdek, emotsional rivojlanishni o'lchash va kuzatish indikatorlari masalasi ham nazariy asosga tayanmasdan hal etilsa, tarbiyaviy ta'sirning maqsadi noaniqlashadi.

Mavjud yondashuvlarni tanqidiy qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ayrim nazariyalar emotsiyalarni asosan ichki jarayon sifatida talqin qilib, muloqot va me'yoriy talablarning rolini yetarlicha yoritmaydi; boshqa nazariyalar esa emotsiyani ijtimoiy konstrukt sifatida ko'rib, neyropsixologik poydevorni chetga surishi mumkin. Shu bois maktabgacha yosh kontekstida emotsional rivojlanishni ko'p omilli va ko'p darajali hodisa sifatida integrativ tahlil qilish ehtiyoji saqlanib qolmoqda <sup>[1; 2; 3]</sup>.

Ushbu maqolaning maqsadi bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid asosiy nazariy qarashlarni tavsiflash, ularning tushuntiruvchi imkoniyatlari va cheklovlarini ko'rsatish hamda maktabgacha ta'lim amaliyotiga mos, operatsion tushunchalar bilan boyitilgan integrativ nazariy ramkani asoslashdir.

Vazifalar quyidagilardan iborat:

- emotsional rivojlanishning klassik psixologik talqinlarini tizimlashtirish;
- bog'lanish va ijtimoiy o'rganish yondashuvlarining maktabgacha yoshga doir tezislarini ajratish;
- madaniy-tarixiy yondashuv va emotsiyalarni boshqarish kontsepsiyalarini qiyosiy yoritish;
- yakunda emotsional kompetensiyalarni pedagogik diagnostika va tarbiyaviy rejalashtirish bilan bog'laydigan konseptual modelni taklif etish.

Ilmiy yangilik emotsional rivojlanishning mazkur yo'nalishlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan, affektiv tajriba, o'zini boshqarish va ijtimoiy-kommunikativ moslashuvni yagona tizim sifatida tushuntiradigan sintezga erishish bilan izohlanadi; amaliy ahamiyat esa tarbiyachilar uchun emotsional rivojlanish indikatorlarini aniqroq talqin qilish va maqsadli pedagogik qo'llab-quvvatlash dasturlarini asoslash imkoniyati bilan belgilanadi <sup>[4]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavjud ilmiy adabiyotlarda hissiy rivojlanishning sotsiokultural izohi (Vygotskiy), bog'lanish nazariyasi (Bowlby), emotsional intellekt kontsepsiyalari (Mayer, Salovey) va ekologik yondashuvlar (Bronfenbrenner) turli darajada ishlab chiqilgan. Biroq, ushbu yondashuvlarni maktabgacha ta'lim muhitini loyihalash vazifasi bilan integratsiyalash ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, o'yin faoliyatining emotsional regulyatsiyaga ta'sir yo'llari yetarli darajada konseptual asoslanmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, unda manbalarni tanlash va tahlil qilishning konseptual va komparativ metodlari qo'llanildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida maktabgacha yosh emotsional rivojlanishiga oid klassik psixologik asarlar, rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya bo'yicha monografiyalar, shuningdek emotsiyani boshqarish va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar mavzusidagi zamonaviy ilmiy ishlardan foydalanildi.

Tahlil jarayonida birinchi bosqichda asosiy tushunchalar: emotsiya, affekt, kayfiyat, emotsional reaktivlik, emotsional ifoda, emotsiyani boshqarish, emotsional tushunish, hamdardlik va ijtimoiy-emotsional kompetensiya kabi kategoriyalar konseptual aniqlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda nazariyalar kelib chiqish manbai va izohlash darajalariga ko'ra guruhlandi:

- psixoanalitik va psixodinamik yo'nalish;
- bog'lanish nazariyasi;
- ijtimoiy o'rganish va kognitiv yondashuv;
- madaniy-tarixiy paradigma;
- rivojlanishning ekologik talqini hamda emotsiyani boshqarish bo'yicha zamonaviy konstruksiyalar.

Uchinchi bosqichda har bir yo'nalish maktabgacha yoshning tipik rivojlanish vazifalari bilan bog'landi: emotsional lug'atning kengayishi, rolli o'yin va me'yorlarni o'zlashtirish, tengdoshlar bilan nizolarni hal qilish, kattalar bilan hamkorlik, hamdardlik va kechiktirilgan qoniqish.

Metodologik tanlovning asosiligi shundaki, maktabgacha yosh emotsional rivojlanishi ko'p darajali hodisa bo'lgani uchun uni faqat bitta nazariya doirasida izohlash reduksionizmga olib keladi; komparativ tahlil esa tushunchalarning mos keladigan va ziddiyatli nuqtalarini ko'rsatib, integratsiya imkonini beradi<sup>[5]</sup>.

Tahlilning ishonchligi manbalarni o'zaro tekshirish, asosiy tezislarni bir nechta ilmiy an'analarda qayta uchrashini aniqlash va nazariy xulosalarni maktabgacha ta'lim amaliyotidagi kuzatiladigan holatlar bilan mantiqiy muvofiqlashtirish orqali ta'minlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida maktabgacha yosh emotsional rivojlanishini tavsiflovchi qarashlar bir-birini to'ldiruvchi besh yirik blok sifatida tizimlashtirildi.

*Birinchi blok* psixodinamik an'anada emotsiyalarni ehtiyojlar, ichki ziddiyatlar va himoya mexanizmlari bilan bog'lab talqin qiladi; bunda erta tajriba va kattalar bilan munosabatlarning emotsional "iz" qoldirishi, xavotir va qo'rquvning tartibga solinishi asosiy tushuntiruvchi omil sifatida olinadi.

*Ikkinchi blok* bog'lanish nazariyasiga tayangan holda emotsional rivojlanishning markaziga "xavfsiz tayanch" fenomenini qo'yadi:

- bola parvarishlovchi shaxsning barqaror javobchanligi orqali stressni kamaytirish, tinchlanish va ijtimoiy muhitni tadqiq etish strategiyalarini o'zlashtiradi;
- natijada emotsional reaktivlikning me'yorlashuvi va emotsiyalarni ijtimoiy maqbul ifodalash shakllari mustahkamlanadi.

*Uchinchi blok* ijtimoiy o'rganish va kognitiv yondashuvlarda emotsional rivojlanish kuzatish, taqlid, mustahkamlash hamda vaziyatni kognitiv baholash mexanizmlari orqali izohlanadi: kattalarning emotsional ifodasi, nizolarni hal etish uslubi, jazolash va rag'batlantirish tartibi bolaning emotsional repertuarini shakllantiruvchi modellarga aylanadi.

*To'rtinchi blok* madaniy-tarixiy yondashuvda emotsiyalarni til, belgi vositalari va ijtimoiy muloqot orqali ichkilashtiriladigan psixik funksiyalar sifatida ko'radi; bunda rolli o'yin, qoida va me'yorlar, hamda kattalar bilan hamkorlik emotsional o'zini boshqarishning "tashqi" shakllarini bosqichma-bosqich "ichki" regulyatsiyaga aylantiradi.

*Beshinchi blok* ekologik va tizimli yondashuvlarda emotsional rivojlanish oilaviy muhit, ta'lim muassasasi, tengdoshlar guruhi va kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstning o'zaro ta'siri mahsuli sifatida tasvirlanadi; emotsional farovonlik bolaga qo'yiladigan talablar, resurslar va qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi muvozanatga bog'lanadi.

Tizimlashtirish natijasida emotsional rivojlanishning operatsion komponentlari ajratildi: emotsional reaktivlik va sezgirlik, emotsional differensiallash va nomlash, emotsional ifodaning ijtimoiy me'yorlarga moslashuvi, emotsiyani boshqarish strategiyalari, hamdardlik va pro-sotsial motivatsiya, shuningdek emotsional muloqot kompetensiyasi.

Maktabgacha yosh doirasida nazariyalar bir nuqtada uyg'unlashadi: emotsiyalar boshqariladigan ko'nikmaga aylanishi uchun bola kattalar bilan barqaror, oldindan aytib bo'ladigan va muloqotga boy munosabat tajribasini boshdan kechirishi kerak.

Shu bilan birga, nazariy farqlar ham aniqlandi:

- ayrim yo'nalishlar individual temperament va biologik yetilishni asosiy determinant deb ko'rsatsa, boshqalari emotsional ko'nikmalarni asosan o'rgatiladigan, me'yorlar orqali yo'naltiriladigan tuzilma deb talqin qiladi;
- tizimli yondashuv esa ushbu ikki nuqtani birlashtirib, risk va himoya omillarining kombinatsiyasini ta'kidlaydi.

Natija sifatida integrativ modelning uch o'qi taklif etildi:

- affektiv tajriba o'qi emotsional reaktivlik va emotsional lug'atni qamrab oladi;
- o'zini boshqarish o'qi tinchlanish, kechiktirilgan qoniqish va kognitiv qayta baholash elementlarini birlashtiradi;
- ijtimoiy-kommunikativ o'qi hamdardlik, nizolarni konstruktiv hal qilish va hamkorlikdagi xulq-atvorni o'z ichiga oladi.



Model maktabgacha ta'lim amaliyotida kuzatish mumkin bo'lgan indikatorlar bilan mos kelishi uchun har bir o'q bo'yicha vaziyatga xos namoyonlar bilan tavsiflandi:

- masalan, affektiv o'q doirasida emotsiyani nomlash tezligi va aniqligi;
- o'zini boshqarish o'qida tanaffus olish, yordam so'rash yoki e'tibor ko'chirish kabi strategiyalar;
- ijtimoiy o'qda esa navbat kutish, sherikning hissiyotini inobatga olish, kelishuvga kelish kabi ko'rsatkichlar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan natijalar emotsional rivojlanish bo'yicha klassik va zamonaviy yondashuvlarni o'zaro muvofiq-  
 lashtirish mumkinligini ko'rsatadi, biroq bu integratsiya nazariy chegaralarni aniq belgilashni talab qiladi. Bog'lanish nazariyasining kuchli tomoni shundaki, u maktabgacha yoshdagi emotsional barqarorlik va stressga chidamlilikning munosabatlar sifati bilan bog'liqligini izchil tushuntiradi; bu, ayniqsa, moslashuv davrida yoki oilaviy risk omillari mavjud sharoitda tarbiyaviy muhitning kompensator rolini asoslashga xizmat qiladi [6].

Biroq faqat bog'lanish bilan cheklanish emotsional ko'nikmalarning o'rgatish va me'yoriy tartibga solinish jarayonini yetarli darajada yoritmasligi mumkin. Madaniy-tarixiy yondashuv, aksincha, emotsiyalarni til va qoida vositasida ichkilashtirishni ta'kidlab, maktabgacha ta'limning didaktik va tarbiyaviy resurslarini nazariy jihatdan quvvatlaydi; lekin bu yo'nalishda individual farqlar, temperament va neuropsixologik yetilishning ba'zi aspektlari ikkilamchi talqin qilinishi ehtimoli mavjud. Ijtimoiy o'rganish va kognitiv yondashuvlar tarbiyachi va ota-onaning modellashtiruvchi xulq-atvori, muomala madaniyati va rag'batlantirish tizimi emotsional repertuarga qanday ko'chishini aniq ko'rsatadi; shu bilan birga, bu yondashuvlar emotsional tajribaning sub'ektiv chuqurligi va munosabatlarning uzoq muddatli "affektiv izlari"ni har doim ham to'liq izohlab bera olmaydi.

Taklif etilgan uch o'qli integrativ model nazariy muvozanatni ta'minlaydi: u emotsiyalarni nafaqat "his" sifa-  
 tida, balki o'rganiladigan va vaziyatga moslashtiriladigan kompetensiyalar tizimi sifatida ham ko'radi. Modelning amaliy ahamiyati shundaki, maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik kuzatish mezonlarini tartibga solish, individual ta'lim yo'nalishlarini belgilash, hamda emotsional qiyinchiliklarni erta aniqlash uchun konseptual asos beradi. Masalan, bola tez-tez affektiv portlashlarni boshdan kechirsa, muammo faqat intizom bilan emas, balki o'zini boshqarish o'qidagi strategiyalar yetishmasligi yoki ijtimoiy o'qdagi muloqot ko'nikmalarining sustligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin; bu esa pedagogik aralashuvni ko'p komponentli rejalashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Natijalarni adabiyotlar bilan qiyosiy ko'rib chiqish shuni anglatadiki, zamonaviy emotsiyani boshqarish konsepsiyalari va ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlari ham aynan integrativ yondashuvga yaqinlashmoqda, ya'ni affekt, regulyatsiya va ijtimoiy kompetensiyalarni ajralmas birlikda ko'rishga intiladi [7].

Tadqiqot cheklovlari shundan iboratki, maqola nazariy tahlilga asoslangan; empirik ma'lumotlar bilan modelning prognoz kuchi va indikatorlarning o'lchov ishonchligi tekshirilmagan.

Kelgusida maktabgacha muassasalarda uzunlamasına kuzatuvlar, turli ijtimoiy kontekstlarda taqqoslovchi tadqiqotlar va tarbiyachi kompetensiyalarini oshirish dasturlarining emotsional natijalarga ta'sirini baholash orqali taklif etilgan modelni verifikatsiya qilish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanish ko'p omilli va ko'p darajali jarayon bo'lib, u affektiv tajriba, o'zini boshqarish ko'nikmalari va ijtimoiy-kommunikativ moslashuvning o'zaro bog'liq birligi sifatida namoyon bo'ladi. Nazariy qarashlar tahlili psixodinamik, bog'lanish, ijtimoiy o'rganish, madaniy-tarixiy hamda ekologik yondashuvlar turli mexanizmlarni yoritishini, ammo ularning har biri alohida qo'llanganda tushuntirishda ma'lum cheklovlar yuzaga kelishini ko'rsatdi.

Tizimlashtirish natijasida emotsional rivojlanishning operatsion komponentlari ajratildi va ularni amaliy kuzatish hamda pedagogik qo'llab-quvvatlash bilan bog'lash imkonini beradigan uch o'qli integrativ model asoslandi. Mazkur model maktabgacha ta'lim amaliyotida emotsional qiyinchiliklarni tabaqalashtirilgan talqin qilish, tarbiyaviy muhitni emotsional jihatdan xavfsiz va qo'llovchi tarzda tashkil etish, hamda bolalarda emotsiyalarni nomlash, boshqarish va hamdardlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli ta'sirlarni rejalashtirish uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu model indikatorlarini empirik sinovdan o'tkazish va turli kontekstlarda uning qo'llanilish chegaralarini aniqlashga qaratilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotskiy L. S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva, Eksmo, 2004. 512 s.
2. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. New York, Basic Books, 1969. 428 p.
3. Ainsworth M. D. S.; Blehar M. C.; Waters E.; Wall S. Patterns of Attachment: A Psychological Study of the Strange Situation. Hillsdale, Lawrence Erlbaum Associates, 1978. 391 p.
4. G'oziyev E. G. Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent, O'qituvchi, 2008. 352 b.
5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, Harvard University Press, 1979. 330 p.
6. Leontyev A. N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. Moskva, Politizdat, 1975. 304 s.
7. Gross J. J. Emotion Regulation: Conceptual and Empirical Foundations. New York, Guilford Press, 2014. 592 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.